

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/07.06.2024.Qx.13.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**PAXTA SELEKSIYASI, URUG‘CHILIGI VA YETISHTIRISH
AGROTEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

ALAUATDIINOVA MEXRIBAN XOJABAYEVNA

**QORAQALPOG‘ISTONNING SHO‘RLANGAN TUPROQLARIDA
G‘O‘ZANI PARVARISHLASHDA KRANTOV BENTONITLARINI O‘G‘IT-
MELIORANT SIFATIDA QO‘LLASH SAMARADORLIGI**

06.01.04-Agrokimyo

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

UO‘T: 631.445.52:633.51:631.878 (575.172)

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on agricultural
sciences**

Alauatdiinova Mexriban Hojabayevna

Qoraqalpog‘istonning sho‘rlangan tuproqlarida g‘o‘zani parvarishlashda
Krantov bentonitlarini o‘g‘it-meliorant sifatida qo‘llash samaradorligi 3

Алауатдинова Мехрибан Хожабаевна

Эффективность применения Крантауских бентонитов в качестве
удобрения-мелиоранта при выращивании хлопчатника на засоленных
почвах Каракалпакстана 21

Alauatdiinova Mekhriban Hojabaevna

Efficiency of using Krantau bentonites as a fertilizer-ameliorant in growing
cotton on saline soils of Karakalpakstan 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 45

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/07.06.2024.Qx.13.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**PAXTA SELEKSIYASI, URUG‘CHILIGI VA YETISHTIRISH
AGROTEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

ALAUATDIINOVA MEXRIBAN XOJABAYEVNA

**QORAQALPOG‘ISTONNING SHO‘RLANGAN TUPROQLARIDA
G‘O‘ZANI PARVARISHLASHDA KRANTOV BENTONITLARINI O‘G‘IT-
MELIORANT SIFATIDA QO‘LLASH SAMARADORLIGI**

06.01.04-Agrokimyo

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B.2021.3.PhD/Qx787 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (tdau.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Tungushova Dilbar Abdukayumovna**
Qishloq xo'jaligi fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy oponentlar: **Mirzayev Lutfullo Aribjanovich**
Qishloq xo'jaligi fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Toshkuziev Ma'ruf Mansurovich
Biologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi Ds.05/07.06.2024.Qx.13.03 raqamli ilmiy kengashning « 19 » aprel 2025 yil soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel: (+99871) 260-48-00; faks: (+99871) 260-38-60; e-mail: tuag-info@edu.uz.; Toshkent davlat agrar universiteti, 1-qavat, kichik anjumanlar zali).

Dissertatsiyasi bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 552100-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy. Toshkent davlat agrar universiteti, Axborot resurs markazi binosi. Tel: (+99871) 260-48-00;

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «28» «03» kuni tarqatildi.
(2025 yil «28» «03» da 11 raqamli reyestr bayonnomasi)



[Signature]
N.B.Raupova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

[Signature]
G.S. Sodiqova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.n., dotsent

[Signature]
M.E.Saidova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

Kirish (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoning 45 mamlakatida yiliga 12 mln. tonna noan'anaviy agrorudalar qazib olinib, ulardan xalq xo'jaligining turli sohalarida, jumladan qishloq xo'jaligi sohasida keng miqyosda foydalanib kelinmoqda¹. Tuproqning unumdorligini oshirish, sho'rlanishni oldini olish va meliorativ holatini yaxshilashda, hamda qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori sifatli hosil olishda mahalliy va mineral o'g'itlardan tashqari noan'anaviy agrorudalardan qo'shimcha ozuqa sifatida foydalanishni taqoza etmoqda. Shu munosabat bilan sho'rlangan tuproqlarning unumdorligini yaxshilashda qo'shimcha o'g'it-meliorant sifatida qo'llanilayotgan noan'anaviy agrorudalarning me'yorlarini aniqlashga qaratilgan agrotexnik tadbirlarni ilmiy asoslangan holda amaliyotga keng joriy etish muhim masala hisoblanadi.

Dunyoning paxta yetishtiruvchi davlatlarida tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, jumladan, meliorativ holatini, agrokimyoviy xususiyatini yaxshilashda, g'ozani oziqlantirish, o'simlik tomanidan tuproqdan ozuqa unsurlarini o'zlashtirishda, paxta hosili va sifatini yaxshilashda mineral o'g'itlarga qo'shimcha o'g'it-meliorant sifatida noan'anaviy agrorudalarni qo'llanilishi ta'sirlarini o'rganishda keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamiz paxtachiligida mineral va organik o'g'itlar bilan bir qatorda tuproq unumdorligi va uning meliorativ holatini yaxshilashda, paxta hosildorligi va tola sifatini oshirish borasida noan'anaviy agrorudalardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Lekin, Qoraqalpog'iston Respublikasining o'tloqi allyuvial tuproqlari sharoitida noan'anaviy agrorudalarni turli me'yorlarda qo'llash texnologiyalarini tomchilatib sug'orish tizimida g'ozadan yuqori va sifatli hosil yetishtirish yullari to'liq o'rganilmagan.

O'zbekiston Respublikasi 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoning maqsadlarining biri "Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga etkazish"², 2019 yil 17 iyundagi PF-5742-son "Qishloq xo'jaligida er va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida" gi, 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2021 yil 24 fevraldagi PQ-5006-son "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan erlardan foydalanish va muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi qarori va mazkur sohaga doir boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor

¹https://www.indexmundi.com/en/commodities/minerals/clays/clays_t16.html

² <https://lex.uz/docs/5841063> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"

yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Noan'anaviy agrorudalar, mineral o'g'itlardan qishloq xo'jaligida foydalanishning samaradorligi, agrofizik xossalari ta'sirini o'rganish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarni bir qator xorijiy olimlar A.S.Sokolov, E.I.Agafonov, A.N.Kojakina, I.N.Chumachenko, V.V.Lapin, L.V.Shvets, D.A.Danilova, G.I.Leshinskayte, hamda respublika olimlaridan S.N.Rijov, M.A.Belousov, L.N.Slesarova, M.M.Tashkuziyev, E.M.Belousov, R.S.Nazarov, T.Piroxunov, Q.Mirzajonov, J.Sattarov, R.Quziyev, A.E.Avliyokulov, N.Ibragimov, D.A.Tungushova, S.M.Boltayev, S.Bauatdinov, B.I.Niyazaliev, N.Raupova, S.O.Abduraxmonov, I.I.Abdullayev, D.A.Turakulovlar tomanidan olib borilgan bolsa, g'o'zani suv tejoychi texnologiyalar qo'llash bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarni bir qator olimlar A.E.Avliyokulov, M.A.Xamidov, A.Haydarov, D.Janibekov, G.A.Bezbaradov, B.S.Kamilov, Yu.Esanbekov, S.X.Isayev, X.Maxsudov, A.S.Shamsiyev, M.A.Avliyokulov, M.P.Ziyotov, J.S.Eshonqulov, I.A.Begmatov, B.Suvanov, Sh.A.Egamberdiyevlar tomanidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Qoraqalpogiston respublikasining o'rtacha shorlangan tuproqlari sharoitida keying yillarda tuproq unumdorligini oshirish, goza va goza majmuidagi ekinlardan yuqori va sifatli hosil olishda N.M.Ibragimov, A.L.Mirzaev va A.M.Sadullaevlar tomanidan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan va kerakli tavsiyalar ichlab chiqilgan. Ammo, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumanining o'rtacha sho'rlangan o'tloqi allyuvial tuproqlari sharoitida bentonit loyqasi me'yorlarining tuproq unumdorligi, jumladan meliorativ holati va agrokimyoviy xususiyati hamda tomchilatib sug'orish tizimida parvarishlanayotgan g'o'za hosildorligiga o'g'it-meliorant sifatida Krantov bentonit loyqasining ta'sirini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-202011295: "Sho'rlangan tuproqlarda tabiiy meliorantlarni hamda resurstejamkor sug'orish usullarni qo'llash orqali tuproqning meliorativ holatini yaxshilash va ekinlarni hosildorligini oshirish agrotexnologiyasini ishlab chiqish" (2021-2024 yy.) mavzusidagi amaliy tadqiqotlar asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumanining o'rtacha sho'rlangan tuproqlarining unumdorligini saqlash va oshirishda, jumladan meliorativ xolati va agrokimyoviy xossalarni yaxshilash, yegatlab va tomchilatib sug'orish tizimida parvarishlashnayotgan g'o'zadan yuqori va sifatli hosil olishda o'g'it-meliorant sifatida bentonit loyqasi me'yorlarining ta'sirini aniqlash va undan samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: Qoraqalpog'iston respublikasi Xo'jayli tumani o'tloqi-allyuvial tuproqlarining meliorativ holati va agrokimyoviy xossalarni tavsiflash;

yegatlab va tomchilatib sug'orish tizimlarida g'oz'a parvarishida o'g'it-meliorant sifatida qo'llanilgan bentonit loyqasining tuproqdagi gumus va umumiy NPK miqdorlariga, vegetatsiya davrida tuproqdagi nitratli azot, harakatchan fosfor va almashinuvchan kaliy dinamikasiga ta'sirini aniqlash;

yegatlab va tomchilatib sug'orish tizimlarida g'oz'a parvarishida o'g'it-meliorant sifatida qo'llanilgan Krantov bentonit loyqasi me'yorlarning g'oz'a vegetatsiyasi davrida o'simlikning quruq massa to'plashi va tarkibidagi oziqa moddalari (azot, fosfor va kaliy) o'zlashtirishiga ta'sirini aniqlash;

o'g'it-meliorant sifatida qo'llanilgan bentonit loyqasi me'yorlarining g'oz'aning o'sishi va rivojlanishiga, paxta hosili va tola sifatiga ta'sirini aniqlash;

yegatlab va tomchilatib sug'orish tizimida g'oz'a parvarishida bentonit loyqalari me'yorlarini qo'llanishning iqtisodiy samaradorligini baholash, hamda bentonit loyqasidan o'g'it-meliorant sifatida samarali foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumanining o'rtacha sho'rlangan o'tloqi-allyuvial tuproqlari, bentonit loyqasi, tomchilatib va egatlab sug'orish tizimida parvarishlangan g'oz'a tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti o'rtacha sho'rlangan o'tloqi-allyuvial tuproqlar sharoitida tomchilatib va egatlab sug'orish tizimida qo'llanilgan bentonit me'yorlarning tuproqning agrokimyoviy xususiyatlariga, g'oz'aning o'sish va rivojlanishi, quruq massa to'plashi, g'oz'a organlaridagi NPK miqdorlari, o'simliklar tomonidan tuproqdan NPK miqdorlarini o'zlashtirishi va 1 tonna hosili uchun sarflanishi, paxta tolasining texnologik sifat ko'rsatkichlari hamda ularni iqtisodiy samaradorligiga ta'sirini o'rganish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tajribada olingan barcha ma'lumotlar dala tajribasi o'tkazish yo'li bilan amalga oshirildi. Tadqiqotlarni o'tkazish, belgilangan barcha fenologik kuzatuvlar, tuproq va o'simlik namunalarini olish bo'yicha «Методика полевых опытов», (Dospexov 1985), «Методика Государственного сорта испытаний сельскохозяйственных культур» (1964) qo'llanmalari asosida o'tkazilgan, tajribada tuproq qatlamlaridan olingan namunalar tarkibidagi gumus, NPK umumiy va harakatchan shakllarining miqdorlari «Методы агрохимических анализов почв и растений Средней Азии» (1977) va «Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах» (1963) usullari asosida tahlil qilingan, paxta hosilini yetishtirish uchun sarflangan harajatlarni va olingan shartli sof foyda, iqtisodiy samaradorligi N.A.Baranov usuli, matematik-statistik ishlov berish Microsoft Excel dasturi asosida B.A.Dospexov uslubiy qo'llanmalari yordamida olib borildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumanining o'rtacha sho'rlangan o'tloqi-allyuvial tuproqlarida g'oz'a yetishtirishda g'oz'ani tomchilatib sug'orish orqali va yillik mineral o'g'itlar $N_{150}P_{105}K_{75}$ kg/ga oziqlantirish bilan birga, Krantov bentonit loyqasini 3 t/ga qo'llashning maqbul me'yorlari aniqlangan;

o'rtacha sho'rlangan o'tloqi-allyuvial tuproqlar sharoitida g'oz'ani tomchilatib va egatlab sug'orish tizimida g'oz'a parvarishida mineral o'g'itlar $N_{150}P_{105}K_{75}$ kg/ga

ga qo'shimcha ravishda o'g'it-meliorant sifatida 3 t/ga bentonit loyqasi qollanilganda tuproqning sho'rlanish darajasi pasayishi, agrokimyoviy xususiyatlari yaxshilanishiga, hamda g'o'zani o'sish rivojlanishiga ijobiy ta'siri aniqlangan;

g'o'za parvarishida mineral o'g'itlar $N_{150}P_{105}K_{75}$ kg/ga ga qo'shimcha ravishda o'g'it-meliorant sifatida 3t/ga Krantov bentonit loyqasi egatlab va tomchilatib sug'orish tizimida qo'llanilganda tuproqning 0-30 sm qatlamida nitrat shaklidagi azot miqdori 3,2-3,9 mg/kg, harakatchan fosfor 7,4-7,5 mg/kg, almashinuvchan kaliy 35,0-25,0 mg/kg ga yuqori bo'lganligi aniqlangan;

tomchilatib va egatlab sug'orish tizimida g'o'zaga mineral o'g'itlarni $N_{150}P_{105}K_{75}$ kg/ga ga qo'shimcha ravishda o'g'it-meliorant sifatida 3t/ga Krantov bentonit loyqasi qo'llanilganda tuproqning unumdorligiga, jumladan zararli tuzlar miqdori va oziqa elementlariga o'zgarishiga, g'o'zani vegetatsiya davrida o'sishi, rivojlanishi va quruq modda to'plashiga, 1 tonna paxta hosili uchun ozuqa moddalarining sarflanishi, hamda paxtani hosili va tolasini texnologik sifat ko'rsatkichlariga ijobiy ta'siri ilmiy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Qoraqalpog'iston Respublikasining sho'rlangan tuproqlari sharoitida g'o'zani tomchilatib sug'orish tizimida yetishtirishda mineral o'g'itlarning yillik me'yorlari $N_{150}P_{105}K_{75}$ kg/ga ga qo'shimcha ravishda 3,0 t/ga bentonit o'g'it-meliorant sifatida qo'llanilganda tuproqning haydov qatlamida zararli tuzlar miqdori 1,7-1,9% ga kamayib, nitrat shakldagi azot miqdori mavsum oxirida nazoratga nisbatan 6,0 mg/kg ga, harakatchan fosfor va almashinuvchan kaliy miqdorlari esa mos ravishda 6,5 va 55,0 mg/kg oshirib, tuproqdagi harakatchan oziq moddalar bilan o'rtacha ta'minlanganlik darajasini namoyan qilgan provardida g'o'za o'sishi rivojlanishi yaxshilanib yuqori hosil olish ta'minlangan;

bentonit loyqasini mineral o'g'itlar $N_{150}P_{105}K_{75}$ kg/ga yillik me'yorlariga qo'shimcha ravishda o'g'it-meliorant sifatida qo'llanilganda tuproqning sho'rlanish darajasi kamayishi natijasida uning meliorativ holati yaxshilanishi, oziq moddalarni o'simlik tomanidan yaxshi o'zlashtirilishi, g'o'zaning bo'yi 93,7 sm, ko'saklar soni 10,2 donani, quruq moddasi 133,5 g/o'simlikni, 1 ta chanoqdagi paxta vazni 5,6 g ni va paxta hosili 40,4 ts/ga ni tashkil etishi, paxta tolasining texnologik sifat ko'rsatkichlari yaxshilashi aniqlangan provardida 49,95-32,24 % rentabellik darajasiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari matematik-statistik tahlil qilinganligi, xalqaro tadqiqotlardagi natijalar bilan qiyosiy taqqoslanganligi, har yili ilmiy hisobotlarning institut Uslubiy va Ilmiy kengashlarida muhokamadan o'tkazilib, tasdiqlanganligi, dala tajribalarini aprobasiya komissiyasi tomonidan ko'rikdan o'tkazilib, ijobiy baholanganligi hamda ishlab chiqarish sharoitida fermer xo'jaliklari maydonlarida joriy etilganligi, Respublika va xalqaro ilmiy konferensiyalarda muhokama qilinganligi tadqiqot natijalarining ishonchliligini asoslaydi

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Qoraqalpog'iston Respublikasining sho'rlangan o'tloqi allyuvial tuproqlar sharoitida tomchilatib sug'orish tizimida g'o'zaga o'g'it-meliorant sifatida bentonit loyqasini qo'llashda

tuproqning sho'rlanish darajasini kamaytirish bilan birga tuproq unumdorligini saqlashga erishish va ma'danli o'g'itlarning samaradorligini 20-25% ga oshirishi, g'ozadan yuqori va sifatli hosil olishi ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati Qoraqalpog'iston Respublikasining o'rtacha sho'rlangan o'tloqi-allyuvial tuproqlar sharoitida tomchilatib va egat orqali sug'orish tizimida parvarishlanayotgan g'ozaga $N_{150}P_{105}K_{75}$ kg/ga mineral o'g'itlarga qo'shimcha ravishda o'g'it-meliorant sifatida bentonit loyqasini 3 t/ga qo'llash bo'yicha kerakli tavsiyalar berilganligi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi. Qoraqalpog'iston Respublikasining sho'rlangan tuproqlari sharoitida g'ozani tomchilatib sug'orishda Krantov bentonitlarini o'g'it-meliorant sifatida qo'llash bo'yicha o'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

fermer xo'jaliklari uchun "Qoraqalpog'iston Respublikasining sho'rlangan tuproqlarida g'ozani parvarishlashda Krantov bentonitlarini o'g'it-meliorant sifatida qo'llashning samaradorligi bo'yicha tavsiyanoma" ishlab chiqilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq Xo'jaligi vazirligining 2024 yil 13-fevraldagi №01/013-529-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu tavsiyanoma o'rtacha sho'rlangan o'tloqi-allyuvial tuproqlari sharoitida paxtachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari va agroklasterlar uchun amaliy qo'llanma sifatida xizmat qilmoqda;

g'ozani tomchilatib sug'orish tizimida parvarishlashda mineral o'g'itlarni $N_{150}P_{105}K_{75}$ kg/ga ga qo'shimcha ravishda Krantov bentonit loyqasini 3t/ga qo'llash Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jeyli tumani Midasiatex Cluster fermer xo'jaligida 23 ga joriy etildi (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq Xo'jaligi vazirligining 2024 yil 13-fevraldagi № 01/013-529-son ma'lumotnomasi). Natijada paxtadan qo'shimcha 10,4 s/ga hosil olingan va rentabellik darajasi Krantov bentonit loyqasini qo'llanilmaganga nisbatan 18,5 % ga oshirishga erishilgan;

g'ozani egatlab sug'orish tizimida parvarishlashda mineral o'g'itlarni $N_{150}P_{105}K_{75}$ kg/ga ga qo'shimcha ravishda Krantov bentonit loyqasini 3 t/ga qo'llash Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jeyli tumani Midasiatex Cluster fermer xo'jaligida 16 ga joriy etildi (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq Xo'jaligi vazirligining 2024 yil 13-fevraldagi №01/013-529-son ma'lumotnomasi). Natijada paxtadan qo'shimcha 9,3 ts/ga hosil olingan va rentabellik darajasi Krantov bentonit loyqasini qo'llanilmaganga nisbatan 17,9 % ga oshirishga erishilgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasining sho'rlangan o'tloqi-allyuvial tuproqlari sharoitida Krantov koni bentonit loyqasini o'g'it-meliorant sifatida g'ozani tomchilatib va egatlab sug'organda 3,0 t/ga qo'llash samarali ekanligi aniqlandi (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq Xo'jaligi vazirligining 2024 yil 13-fevraldagi №01/013-529-son ma'lumotnomasi). Natijada gektaridan 17,9-18,5 % ga rentabellik darajasini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Dala sharoitida olib borilgan tajribalar Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining maxsus aprobatsiya komissiyasi tomonidan ijobiy baholangan, ilmiy tadqiqot natijalari bo'yicha tayyorlangan hisobotlar institutning ilmiy va uslubiy

kengashlarida muhokama qilingan. Dissertatsiya ishining asosiy ilmiy natijalari bo'yicha jami 9 ta, jumladan 3 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha olingan natijalar tadqiqotchi tamonidan jami 9 ta ilmiy ishda chop etilgan, shulardan 1 ta amaliyotga tavsiya, O'zbekiston respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan 3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallar hamda 1 respublika va 3 ta xalqaro konferentsiyalarda nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 119 betni tashkil etgan.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruririyati asoslangan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda ob'ekt va predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Adabiyotlar sharxi**" deb nomlangan bo'lib ikki "G'o'zani qo'shimcha oziqlantirishda agrorudalarni qo'llashning mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqot natijalari" va "Qo'llanilgan turli agrotexnologiyalarni tuproq unumdorligi va g'o'za hosildorligiga ta'siri" paragrafidan tashkil topib mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari, xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili batafsil yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotlar maqsadidan kelib chiqib, bentonit loyqasining umumiy tasnifi keltirilib, o'simliklar uchun qo'shimcha oziqa manbai sifatida tutgan o'rni va ahamiyati, turli tuproq iqlim sharoitida qo'llanganda tuproqning unumdorligiga, ya'ni agrokimyoviy xossalari, g'o'za va boshqa ekinlarning sho'rlanishi va tomchilatib sug'orish yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Tadqiqotlarning tuproq-iqlim, uslubiy sharoitlari va qo'llanilgan agrotexnik tadbirlar**" deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot o'tkazilgan hududning tuproq iqlim sharoitlari, tajriba tizimi va tadqiqot o'tkazish uslublari, tajribada qo'llanilgan agrotexnik tadbirlar hamda Krantov koni bentonit loyqasi va g'o'za navining biologik tavsiflari keltirilgan. Tajribalar o'tkazilgan dala tuprog'ining haydov (0-30 sm) va haydov osti (30-50 sm) qatlarida gumus miqdori 0,697-0,530%, yalpi azot 0,067-0,050%, umumiy fosfor 0,145-0,132%, umumiy kaliy 1,40-1,37%, nitratli azot 14,3-7,4 mg/kg, harakatchan fosfor 19,2-15,2 mg/kg va almashinuvchi kaliy esa 180-175 mg/kg ni tashkil etib, oziq unsurlari bilan kam ta'minlanmaganligi ko'rsatib o'tilgan. Bu tuproqlar o'tloqi-allyuvial, o'rtacha sho'rlangan, sizot sathi 1,5-2,0 m chuqurlikda. Ushbu mintaqalar iqlimida, yillik yog'ingarchilik miqdori 10,2-105,1 mm tashkil etadib, yog'inning asosiy qismi sovuq davrda, ya'ni noyabr-dekabr oylariga to'g'ri keladi, havo harorati yoz oylarda

oʻrtacha harorat +24,6°C, eng yuqori harorat esa +29,1 °C, eng past harorat -1,4 °C atrofida boʻlishi, namlik 59%, shamolning faoliyati nisbatan kuchli darajada boʻlishi koʻrsatib oʻtilgan.

Dala tajribasi har yili 12 ta variant 3 qaytariqda sistemali ravishda bir yarusda joylashtirilgan. Bitta egatning eni 0,76 m, variantini uzunligi 50 m, umumiy maydoni 304 m² va hisobga olinadigan maydon 152 m² qilib belgilangan. Dala tajribalari statsionar tarzda amalga oshirilgan. Laboratoriya va dala tadqiqotlari olib borilgan barcha tahlillar umum qabul qilingan uslublar asosida oʻtkazilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot natijalari”** deb nomlangan uchinchi bobi oʻn paragrifdan tashkil topib, gʻoʻza parvarishida Krantov koni bentoniti loyqasini oʻgʻit-meliorant sifatida qoʻllash meʼyorlarining tuproqning agrokimyoviy xususiyatlariga, sizot suvlar dinamikasiga va tuproqdagi zararli tuzlar miqdoriga taʼsiri boʻyicha tadqiqot natijalari bayon etilgan. Hamda bentonit loyqasi qoʻshimcha oziqa sifatida turli meʼyorlarda qoʻllanishi gʻoʻzaning oʻsishi, rivojlanishi, ozuqa moddalarini oʻzlashtirishi, hosil toʻplashishiga taʼsiri bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Bentonit loyqasini qoʻllash meʼyorlarini sizot suvlarining minerallashtirish darajasi va tuproqdagi tuzlar miqdoriga taʼsiri”** deb nomlangan paragrifida tajriba dalasining tuproq tahlillar natijalari bayon etilib, sizot suvi V.V.Yegorov, N.G.Minashina tasnifiga koʻra oʻrtacha minerallashtirish darajasiga toʻgʻri kelishi bayon etilgan. Sizot suvi tarkibidagi HCO₃⁻ 0,151-0,184% yoki 2,342-2,874 mg.ekv ekanligi kuzatildi (1-jadval).

1-jadval

Sizot suvining minerallashtirish darajasi

№	Zararli tuzlar	Amal davri			
		Boshi (17.03.2021)		Oxiri (14.11.2021)	
		%	mg.ekv	%	mg.ekv
1	Ca ²⁺	0,465	23,470	0,562	28,781
2	Mg ²⁺	0,247	14,710	0,310	15,671
3	Na ⁺	0,410	19,128	0,501	22,131
4	K ⁺	0,078	0,621	0,087	0,810
5	HCO ₃ ⁻	0,151	2,342	0,184	2,874
6	Cl ⁻	0,114	1,724	0,131	2,078
7	SO ₄ ²⁻	2,345	54,348	2,762	60,882
8	Quruq qoldiq, %	3,380		4,537	

Oʻlib borilgan natijalarga koʻra, sizot suvi tarkibidagi Cl⁻ va SO₄²⁻ ionlarining miqdori vegetatsiya davri oxiriga kelib, 0,131 va 2,762 % ga, Ca²⁺ - 0,465; Mg²⁺ - 0,247; Na⁺ - 0,410 % teng boʻldi va amal davri oxirida shoʻr yuvish tadbirlari sizot suvi tarkibidagi zararli tuzlarga taʼsir etib, xlor ioni 0,017%, sulfat ioni 0,417 % ga, esa kationlarga mos holda 0,097, 0,063 va 0,091 % ga ortganligi kuzatildi.

Tajribaning ikkinchi yilida amal davri boshida, yaʼni shoʻr yuvishdan keyin tomchilatib sugʻorish tizimida nazorat variantda (N₁₅₀P₁₀₅K₇₅ kg/ga) zararli tuzlar miqdori tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamida quruq qoldiq boyicha 0,629 va 0,652 %; sulfat ioni 0,446 va 0,445 % ni tashkil qilgan boʻlsa, mineral oʻgʻitlarga (N₁₅₀P₁₀₅K₇₅kg/ga) qoʻshimcha 3,0 t/ga bentonit loyqasi qoʻllangan variantda 0-30 va

30-50 sm qatlamlarda quruq qoldiq boyicha 0,652 va 0,628 %; sulfat ioni 0,423 va 0,433 %; qo‘shimcha 4,5 t/ga bentonit loyqasi qo‘llangan variantda mos ravishda 0,626 va 0,685 %; 0,425 va 0,434 % etkanligi aniqlanib, bu esa nazorat variant ($N_{150}P_{105}K_{75}$ kg/ga) ga nisbatan 0-30 va 30-50 sm qatlamda quruq qoldiq boyicha 0,023 va 0,024 %; sulfat ioni 0,023 va 0,012 % ga kam bo‘lganligi kuzatildi.

Tajribaning egatlab sug‘orish tizimida ham xuddi shu 3,0-4,5 t/ga bentonit qo‘llanilgan variantlarda ijobiy natijalar ko‘zatilib, 0-30 va 30-50 sm qatlamlarda nazorat variant ($N_{150}P_{105}K_{75}$ kg/ga) ga nisbatan quruq qoldiq boyicha mos ravishda 0,003 va 0,026 %; 0,026-0,004 %; sulfat ioni esa 0,016 va 0,011%; 0,009 va 0,002 % ga kam bo‘lganligi kuzatildi.

Amal davri oxiriga kelib, tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamlarida zararli tuzlar miqdori kam to‘planishi Krantov bentonit loyqasini 3,0 t/ga qo‘llanganda kuzatildi. Bentonit loyqasi me‘yorlarining ortishi bilan tuproqdagi zarali tuzlar miqdori kamayib bordi. Buni Krantov koni bentonit loyqasi tarkibidagi Ca^{2+} kationi suvda erigan sulfatlarni o‘ziga biriktirib olib, $CaSO_4$ holida chukmaga tushishi natijasida suvda erigan tuzlarning zararli miqdorini kamayishiga sabab bo‘lishi hamda tuproqning singdirish sig‘imini orttirib, tuproqdagi anion va kationlarning ma‘lum miqdorda yutish qobiliyati bilan izohlash mumkin.

Qoraqalpog‘iston respublikasining o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlar sharoitida g‘o‘zani tomchilatib sug‘orishda mineral o‘g‘itlarga qo‘shimcha ravishda chigit ekish oldidan har yili 3,0 t/ga Krantov bentonit loyqasini qo‘llanishi tuproqning haydov qatlamida nazoratga nisbatan kal’siy kationi 0,041% va haydov osti qatlamida esa 0,04%, sulfat ioni tuproq qatlamlariga mos holda 0,067; 0,071% ga, egatlab sug‘orish tizimida esa kal’siy kationi 0,043; 0,036%; sulfat ioni 0,08 va 0,059% kam to‘plangan, oqibatida, g‘o‘zaning o‘sish va rivojlanishi, tuproqdan oziqa moddalarni o‘zlashtirishi yaxshilanganligi hamda yuqori va sifatli hosil olish ta‘minlangan.

Dissertatsiyaning “**Tuproqdagi suvda eruvchi zararli tuzlar muvozanatiga bentonit loyqasini qo‘llashning ta’siri**” deb nomlangan paragrafida Krantov bentonit loyqasi qo‘llash me‘yorlarining tuproqdagi tuzlar muvozanatiga ta’siri bayon etilgan. Tuproq tarkibidagi suvda eruvchi zararli tuzlar miqdorining o‘zgarishi amal davri boshi va oxirida barcha qaytariq va variantlar kesimida tahlil qilindi. Suvda eruvchan tuzlarni siqib chiqarish koeffitsiyentini I.S.Rabochev va A.S.Ovsiyankov ishlari asosida hisoblanadi. Dalada sho‘r yuvish ishlari amalga oshirilmasdan 2020 yil noyabr oyida tuproqning 0-50sm qatlamidagi suvda eruvchi tuzlar ioni miqdori o‘rtacha 85,6 t/ga teng bo‘lib, uch yil bentonit loyqasini turli me‘yorlarda qo‘llab, 2023 yil fevral oyida sho‘r yuvish ishlari amalga oshirilgandan keyin tuproqdagi suvda eruvchi zararli tuzlar miqdorining samarali kamayishi ko‘z atildi.

Tajriba qo‘yishdan avval g‘o‘zani tomchilatib sug‘orish tizimida parvarishlaganda nazorat variantda ($N_{150}P_{105}K_{75}$ kg/ga) 0-50sm qatlamda sho‘r yuvishdan keyin 47,3 t/ga yoki 55,2% tuzlar miqdori aniqlandi. Yani tuproq tarkibidan yuvilgan tuzlar miqdori 38,3 t/ga yoki 44,8% tashkil etgan. Har yili haydov ostiga bentonit loyqasini 1,5 va 3,0 t/ga qo‘llanishi natijasida sho‘r yuvishdan

keyin tuproqning 0-50 sm qatlamida 47,5 va 45,8 t/ga (55,4 va 53,4 %) tuz qolgani aniqlandi. Ya'ni, bentonit loyqasi 1,5 va 3,0 t/ga qo'llanganda tuproqning 0-50sm qatlamidan 38,1 va 39,8 t/ga yoki 44,6 va 46,5 % suvda eruvchi zararli tuzlar yuvilgan. Suvda eruvchi zararli tuzlarni siqib chiqarish koeffitsiyenti (R) hisoblanganda haydov ostiga bentonit loyqasini har yili 1,5 t/ga qo'llanganda 102,2 va 3,0 t/ga qo'llanganda esa 97,9 ni tashkil qilganligi aniqlandi. G'o'zani egatlab sug'orish tizimida ham ushbu qonuniyatlar aniqlandi.

Qoraqalpog'istonning o'rtacha sho'rlangan tuproqlari sharoitida sho'r yuvish tadbirlari yakunlangandan so'ng sulfat va xlor ionlarining muvozanatida nisbatan yuqori ko'rsatkich har yili 3,0 t/ga bentonit qo'llanilganda kuzatilib nazoratga nisbatan yuvilgan sulfat va xlor ionlarining miqdori 1,0-1,5 va 0,4 t/ga yoki 2,4-2,8 va 15,4 % ga ko'p yuvilganligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Tuproqda gumus, umumiy azot, fosfor va kaliy miqdorlarining o'zgarishi”** deb nomlangan paragrafida tadqiqot olib borilgan yillar davomida Krantov bentonit loyqasini qo'llash me'yorlarining tuproqda oziqa elementlarini umumiy shakllari miqdorini o'zgarishiga ta'siri bayon etilgan. Dala tajribasini quyishdan oldin avval tuproqni haydalma (0-30 sm) va haydov (30-50) octi qatlamlarida gumus miqdori 0,697-0,530 %, umumiy azot 0,067-0,050 %, fosfor 0,145-0,132 %, kaliy 1,40-1,37 % ni tashkil etdib, tadqiqotning uchinchi (2023) yiliga kelib, amal davri oxirida bentonit loyqasi qo'llanilmagan faqat mineral o'g'itlar qo'llanilgan variantlarda (3 va 9) tuproqdagi oziqa elementlari miqdorlari tajriba boshlangan yilidan oxirgi yilga tomon kamayib borganligi aniqlandi, tuproqni 0-30 va 30-50 sm li qatlamlarida mutanosib ravishda gumus 0,525-0,483 va 0,525-0,464 %, umumiy azot 0,036-0,033; 0,036-0,031 %, fosfor 0,094-0,093 va 0,118-0,114 %, kaliy esa 1,39-1,35 va 1,37-1,32% ni tashkil etgan. Tomchilatib sug'orishda tizimida faqat bentonit loyqasini uch yilda bir marta 4,5 t/ga qo'llanilganda 0-30sm qatlamida gumus miqdori 0,545% tashkil etgan busa, egatlab sug'orish tizimida esa 0,505 % tashkil qilganligi aniqlandi.

Yuqori ko'rsatkichlar Krantov bentonit loyqasini mineral o'g'itlar fonida chigit ehishdan oldin erta bahorda har yili 3,0 t/ga qo'llangan (5 va 11) variantlarda kuzatilib tuproqning haydov qatlamida (0-30 sm) gumus 0,607-0,555; azot 0,060-0,044, fosfor 0,100-0,118 va kaliy esa 1,40-1,39 % ni tashkil qilib, nazorat variantiga nisbatan 0,082-0,03; 0,016-0,008; 0,006; va 0,01-0,02 % yuqori bo'ldi, haydov osti (30-50 sm) qatlamida nazoratga nisbatan 0,021-0,027; 0,006-0,009; 0,013-0,002 va 0,02-0,03 % ga yuqori bo'lganligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Qo'llanilgan bentonit loyqasi me'yorlarining tuproqdagi nitratli azot dinamikasiga ta'siri”** deb nomlangan paragrafida tadqiqotning uch yillik dala tajribasi shuni ko'rsatadiki, bentonit loyqasini qo'llanishi tuproqdagi nitrat shakldagi azotni ortishiga olib keldi. Bu albatta bentonit loyqasining mineral o'g'itlar tarkibidagi qo'llangan azotni o'ziga singdirib, tuproqdan yuvilishini oldini olish xususiyati bilan bog'liq. Tadqiqot yillari davomida olingan ma'lumotlar bir-biriga yaqin bo'lganligi sababli yuqoridagi bo'limlarga asoslanib yana 2022 yil ma'lumotlari tahlili bilan to'xtalamiz. G'o'zani tomchilatib sug'orish va egatlab sug'orishda 3-4 chin barg fazasida mineral o'g'itlar fonida (3 va 9) 0-30 sm

qatlama nitrat miqdori 8,5; 7,5 mg/kg; mineral o'g'itlarni $N_{150}P_{105}K_{75}$ kg/ga ga qo'shimcha ravishda 1,5; 3,0 va uch yildan bir marta 4,5 t/ga bentonit loyqasi qo'llanilgan variantlarda (4;5;6;10;11 va 12) 9,8; 12,2; 11,5; 8,8; 12,2 va 10,5 mg/kg ni tashkil etdi.

G'o'zaning shonalash davrida 0-30 sm qatlamda nitrat shakldagi azot miqdori nazoratga $N_{150}P_{105}K_{75}$ kg/ga nisbatan tomchilatib sug'orishda mineral o'g'itlar bilan birga 1,5; 3,0 va 4,5 t/ga bentonit qo'llanganda 4,8; 7,5 va 6,0 mg/kg, 30-50 sm qatlamda esa 5; 8,7 va 7,5 mg/kg ga yuqori bo'lganligi aniqlandi (1-rasm).

Egatlab sug'orish fonida ham xuddi shu q'onuniyat kuzatilib, nazoratga nisbatan faqat 4,5 t/ga bentonit va mineral o'g'itlar $N_{150}P_{105}K_{75}$ kg/ga qo'llanilgan variantlarda 3-4 chin barg davrida nitrat shakldagi azot miqdori 1,0 va 1,6 mg/kg; shonalash davrida esa 1,3 va 3,5 mg/kg ga yuqori bo'lganligi kuzatildi.

Tuproqda g'o'zaning gullash davrida nitrat shaklidagi azot miqdori boshqa davrlarga nisbatan yuqori bo'lganligi kuzatildi. Bu paytda g'o'zalar tez avjga kiradi, tuproqdan oziqa moddalarni o'zlashtirishi azotli o'g'itlarga bo'lgan talabi ortadi. Shu davrda 0-30 sm qatlamda mineral o'g'itlar $N_{150}P_{105}K_{75}$ kg/ga qo'llangan variantda (3 va 9) 21,8 va 19,8 mg/kg; mineral o'g'itlarga qo'shimcha 1,5; 3,0 va uch yildan bir 4,5 t/ga qo'llangan variantlarda (4; 5; 6; 10; 11 va 12) 23,5; 25,7; 24,5; 20,0; 23,0 va 22,2 mg/kg ni tashkil etdi (1-rasm).

Amal davri oxiriga kelib tuproqdagi nitratlar miqdori kamaydi, bu harorat va mikrobiologik faoliyatni sustlashishi va o'simliklar tomanidan nitratlarni umumiy so'rib olish kuchining pasayishi bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning **Qo'llanilgan bentonit loyqasi meyorlarining tuproqdagi harakatchan fosfor dinamikasiga ta'siri** deb nomlangan paragrafida harakatchan fosforning dinamikasidagi o'zgarishlar bo'yicha ma'lumotlar bayon etilgan bo'lib, vegetatsiya davrida barcha variantlarda erta bahordan kech kuzga tomon oshib borib, g'o'zaning vegetatsiya davrini oxiriga kelib pasayishi aniqlandiki, bu yana tuproq

haroratini o'zgarishi va o'simliklar tomonidan fosforni o'zlashtirishi bilan bevosita bog'liqdir. Jumladan, g'ozaning 3-4 chin barg davrida 0-30 sm qatlamida harakatchan fosfor bilan kam ta'minlangan. Shonalash davrida o'g'it qo'llanmagan 1 va 7-variantlarda tuproqning 0-30 sm qatlamidagi harakatchan fosfor miqdori 15,0 va 13,0 mg/kg bo'lgan bo'lsa, bentonitsiz mineral o'g'itlar qo'llangan 3 va 9-variantlarda bu ko'rsatkich 18,2 va 16,0 mg/kg tashkil etib, mineral o'g'itlar qo'llanmagan variantlarga nisbatan harakatchan fosfor miqdori 3,2 va 3,0 mg/kg yuqori bo'ldi.

Shudgor ostiga bentonit me'yorlarni tomchilatib sug'orish tizimida shonalash davrida 0-30 sm qatlamda 1,5 va 3,0 t/ga mineral o'g'itlarni $N_{150}P_{105}K_{75}$ kg/ga ga qo'shimcha ravishda qo'llanilgan variantda, nazoratga nisbatan 3,0 va 7,0 mg/kg ortishiga sabab bo'ldi (2-rasm).

Egatlab sug'orish tizimida g'ozani gullash davrida 0-30 sm qatlamida nazorat mineral o'g'itlar $N_{150}P_{105}K_{75}$ kg/ga variantga nisbatan Krantov bentoniti qo'llanilgan 11, 12 variantlarda harakatchan fosfor miqdori 4,5 va 4,0 mg/kg ga yuqori ekanligi aniqlandi. Tuproqlarda qishloq xo'jaligi ekinlarga solingan fosforli o'g'itlar ko'p darajada o'simlik tomonidan o'zgarish natijasida ularning eruvchanligi turlicha bo'ladi. Bunday holatlar tuproqda kechadigan jarayonlarni kerakli namlik, yetarli darajada ob-havo harorati orqali turli xil kimyoviy, fizikaviy, fizik-kimyoviy va mikrobiologik jarayonlar ro'y beradi.

Olingan tahlil natijalar asosida, Qoraqalpog'iston Respublikasining o'rtacha sho'rlangan tuproqlari sharoitida Krantov bentonit loyqasini kuzgi shudgor ostiga har yili 3,0 t/ga qo'llash, tomchilatib va egatlab sug'orish tizimlarida harakatchan fosforning miqdori g'ozaning gullash davrida tuproqning 0-30 sm qatlamida nazorat $N_{150}P_{105}K_{75}$ kg/ga variantga nisbatan 4,0 va 4,5 mg/kg ortishiga olib keldi. Qolaversa, sug'orish tizimlariga ham bog'liq ekanligi aniqlandi. Tuproqqa qo'llanilgan Krantov

bentoniti qo'llanilishi natijasida tuproqdagi fosforni eruvchanligi ortishi natijasida g'oz ekini uchun maqbul fosforli oziqlanish me'yorlari yaratilishi imkoni kuzatildi (2-rasm).

Dissertatsiyaning **“Qo'llanilgan bentonit loyqasi me'yorlarining tuproqdagi almashinuvchan kaliy dinamikasiga ta'siri”** deb nomlangan paragrafida tomchilatib va egatlab sug'orish tizimida g'oz parvarishida tuproqdagi almashinuvchan kaliy miqdorining dinamikasi bo'yicha ma'lumot bayon etilgan.

Mineral o'g'itlar qo'llamasdan bentonit loyqasi 4,5 t/ga uch yilda bir marta qo'llanilgan variantlarda (2 va 8) tuproqning 0-30 sm qatlamida g'ozaning o'sish va rivojlani davrlari bo'ylab, kaliy miqdori 155; 165; 175; 130 va 130; 140; 168; 120 mg/kg tashkil etganligi aniqlandi. Tuproqda 3-4 chin barg davrida kaliy bilan kam ta'minlangan bo'lib, g'ozaning shonalash davriga kelib nisbatan ta'minlanganligi kuzatildi, gullash davrida esa tuproqdagi almashinuvchan kaliy miqdori kutarilib o'rtacha ta'minlanganlik darajasida bo'lib, amal davri oxiriga kelib nisbatan ya'na pasayganligi kuzatildi (3-rasm). Tomchilatib va egatlab sug'orish tizimida har yili 3,0 t/ga bentonitni mineral o'g'itlarga qo'shimcha ravishda qollanilgan 5 va 11 variantlarda g'ozaning gullash davrida 0-30 sm qatlamida nazoratga nisbatan 25 va 35 mg/kg yuqori bo'lganligi kuzatildi.

